

**“HIBAT UL-HAQOYIQ” – O‘ZBEK ADABIYOTINING
BEBAHO DURDONASI**

Jabborova Shohidabonu Dilshod qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Filologiya fakulteti Noshirlik ishi yo‘nalishi 4- bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada XII asrda yashagan buyuk mutafakkir Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari tahlil etiladi. Asarning mazmuni, uning axloqiy-didaktik mohiyati, ilm va ma‘rifat, til odobi, saxovat, kamtarlik kabi mavzulari yoritiladi. Shuningdek, asarning adabiy va lingvistik ahamiyati, uning qo‘lyozmalari va nashrlari, turkiy adabiyotdagi o‘rni va Alisher Navoiy tomonidan yuqori baholanganligi haqida ma‘lumot beriladi. Asar islomiy axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qilib, insonlarni ilmga, odobga va rostgo‘ylikka da‘vat etadi.

Kalit so‘zlar: Ahmad Yugnaki, Hibat ul-haqoyiq, o‘zbek adabiyoti, ta‘limiy doston, ilm-ma‘rifat, til odobi, saxovat, axloq, islomiy qadriyatlar, Alisher Navoiy.

Kirish

Ahmad Yugnakiy Samarqandga yaqin Yugnak qishlog‘ida ziyolilar oilasida tug‘ilgan. Boshqa taxminlarga qaraganda Farg‘ona vodiysining Yug‘noq qishlog‘ida tug‘ilgan. Samarqanddagi madrasalarda ta‘lim olgan bo‘lib, tug‘ma ko‘r bo‘lgan. Buni Alisher Navoiy ham ta‘kidlagan. Bizgacha uning „Hibat ul-haqoyiq“ („Haqiqat tuhfalari“) dostoni saqlanib qolgan bo‘lib, bu asar Farg‘ona hukmdori Dodsipohsolarga bag‘ishlangan. Asarning bizga qadar bir necha qo‘lyozmalari yetib kelgan bo‘lib, XV asrda ko‘chirilgan arab va uyg‘ur yozuvidagi qo‘lyozma nusxalari Istanbulda saqlanadi. Asar 14 bobni tashkil qilgan bo‘lib, u Qur‘on va hadis hikmatlarining badiiy sharhi hamda ilm o‘rganishning foydalari, shirinsuxanlik, kamtarlikning foydalari, takobur, xasislik, achchiqzabonlikning zararlari xususida ham fikr yuritilgan. Alisher Navoiy „Nasoyim ul-muhabbat“ asarida Yugnakiyni eslab bir bayt ila ta‘riflab o‘tgan.

Ta‘limiy doston janriga mansub bu asarda ijtimoiy, siyosiy masalalar bayon qilingan, bilim foydasi va til odobi kabi axloqiy muammolar talqini berilgan. Adib Ahmad yashagan davri va joyi haqida adabiyotshunoslikda turli qarashlar mavjud. Tarjimayi holi haqida deyarli ma‘lumot yo‘q. „Hibat ul-haqoyiq“ („Haqiqatlar tuhfasini“) asari bizgacha yetib kelgan. Uning oxirida Adib Ahmad ismi tilga olinadi. Asar nusxalaridan biriga temuriy amaldorlardan Arslonxoja Tarxon tomonidan ilova qilingan 10 baytli masnaviyda Yugnakiy haqida ba‘zi ma‘lumotlar mavjud. Undan ma‘lum bo‘lishicha, Adib Ahmad Yugnak degan so‘lim va bahavo joyda tug‘ilgan. Otasining oti Mahmud Yugnakiy bo‘lgan. Kitobi adabdan iborat bo‘lib, nomi —“Hibat ul-haqoyiq”dir. Kitob Koshg‘ariy tilda she‘riy yo‘l bilan yozilgan. „Qutadg‘u bilig“dan

1 yoki 2 asr keyin yaratilgan bu asar o‘zbek mumtoz adabiyotining noyob durdonasi hisoblanadi. Alisher Navoiy „Nasoyim ul-muhabbat“ tazkirasida Yugnakiyni O‘rta Osiyoning mashhur shayxlari qatoriga qo‘yib, uning tug‘ma ko‘rligi xususida so‘zlaydi, yana Navoiy Husayn Boyqaro o‘g‘li Badiuzzamonga yozgan xatlaridan birida ham „Hibat ul-haqoyiq“dan parchalar keltiradi. „Hibat ul-haqoyiq“ asari shoir haqidagi ma’lumotlarni birmuncha to‘ldirishga, Yugnakiy yashab ijod etgan davrni tahlil qilishga imkon beradi.

Shoir „Hibat ul-haqoyiq“ni tugatib, uni hukmdori Dod Sipohsolorbekka taqdim etadi. Mashhur sharqshunos olim E. Bertels bu asar qadimiy o‘zbek adabiy tilidan mumtoz o‘zbek adabiy tiliga o‘tishda bir ko‘prik bo‘lganini aytadi. Asar tilida qadimiy turkiy so‘zlardan ko‘ra, arab va fors so‘zlarining ko‘p qo‘llangani shundan dalolat beradi. Yugnakiy bu asari bilan o‘zbek adabiy tili va adabiyoti rivojiga katta hissa qo‘shgan. „Hibat ul-haqoyiq“ asari 14 bob, 512 misradan iborat. Yugnakiy o‘zini shoir emas, balki adab muallimi, deb hisoblagan. O‘ziga xos axloq kitobi bo‘lgan bu asarga Qur‘oni karim va Hadisi sharif ma‘nolari singdirilgan. U islom dini axloqini tashviq qilish, komil insonni tarbiyalab yetishtirish maqsadi bilan yozilgan „Hibat ul-haqoyiq“ ilk bor uyg‘ur yozuvida bitilgan. Uning nusxalari ko‘p bo‘lib, ularda asar hajmi turlicha. Hozircha ma‘lum qo‘lyozmalardan 3 tasi (biri uyg‘ur yozuvi, ikkinchisi arab va uyg‘ur yozuvi, uchinchisi esa arab yozuvi bilan bitilgan) to‘liq, qolganlari parchalardan iborat. 1444-yil Samarqandda Zaynulobiddin baxshi, 1480-yil Istanbulda Abdurazzoq baxshi va Turkiyaning To‘pqopi kutubxonasidagi kotib tomonidan ko‘chirilgan qo‘lyozmalar e’tiborli nusxalar hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlilicha, Ahmad Yugnakiyning ushbu asari islom turkiy adabiyotida ikkinchi asar bo‘lgani uchun til tarixi va adabiyoti jihatidan katta ahamiyatga ega. Xususan, „Qutadg‘u bilig“ qo‘shma va masnaviy tarzida yozilgan bo‘lsa-da, „Hibat ul-haqoyiq“ to‘rtlik shaklida yozilgan. Jumladan, adib tomonidan to‘g‘ri so‘zni asalga, yolg‘on so‘zni sarimsoqqa o‘xshatib tasvirlashi majozning bir katta namunasi hisoblanadi. Shuningdek, insonlardagi yolg‘on so‘z kasallik, tashvish bo‘lsa, to‘g‘ri so‘z shifo bo‘lib dardlardan forig‘ etishini qayd etgan.

Ahmad Yugnakiyning o‘zining „Hibat ul-haqoyiq“ asarida saxovat va muruvvatan xoli odamni mevasiz daraxtga qiyoslaydi, mevasiz daraxt esa kesib o‘tin qilishgagina yaraydi deydi.

Yemishsiz yog‘ochdek karamsiz kishi,

Yemishsiz yog‘ochni kesib kesip o‘rtatil.

Darhaqiqat, Ahmad Yugnakiyning ushbu asari pandnoma ya’ni nasihatlar usulida yozilgan badiiy jihatdan yetuk asar hisoblanadi. Asar o‘zidan oldin yaratilgan pand-nasihat ruknidagi asarlarga hamohang tarzda yaratilib, o‘zbek mumtoz adabiyoti durdonalaridan biriga aylandi. Ahmad Yugnakiy o‘zini shoir emas, adab muallimi deb ataydi. Asar xotimasida adibning o‘zi asarni yozishdan maqsadini quyidagicha bayon

etadi:

Xaloyiqqa ibrat, ta'lim berguvchi, kitob bitdim, odobga chaqiruvchi.

Tinglasa arzirli so'zga tenglasin, o'z qadrini misli durday terguvchi.

Ahmad Yugnakiyning bu kitobni yozishdan maqsadi insonlarni odob-axloqqa chaqirish, ayniqsa, yosh avlodni tarbiyalashdan iborat. Allohga hamd, payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning madhi kabi qarashlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, asarda uning tomonidan quydagi diniy g'oya mavjud, ya'ni, choriyorlarga ham salom yo'llayman, Tirikman, ularning yo'lin qo'llayman deya choriyorlarni ulug'laganligini keltirish mumkin. Darhaqiqat, Ahmad Yugnakiy o'z asarida ilm va ma'rifat g'oyalarini falsafiy va badiiy jihatdan asoslab bergan. Xususan, ilm saodatga etaklashini, baxtning kaliti ilmda ekanligini bayon qiladi. Shunga binoan, har bir davrda ilm sohiblari va ularga qarama-qarshi tarafda johillar ham bo'lishgan. Bundan tashqari asarda bilimli va bilimsiz insonlarni bir-biri bilan qiyosiy solishtirib, bilimli insonni tilla dinorga (pul)ga qiyoslasa, bilimsiz inson johil odam xalq orasida doim xor-u zor bo'lishi ta'kidlanadi. Qolaversa, inson azosidan biri suyak orqali inson ko'rkini aqlga qiyoslab tasvirlab beradi. Jumladan, suyakning ko'rki ilik bo'lganidek, insonning ko'rki uning aqli, ilmi ekanligi e'tirof etadi. Ilmli fozillar bu dunyodan ko'z yumishsa-da ularning nomi barhayot bo'lishi, johillar tirik bo'lsa-da ularning el orasida hurmati va o'rni bo'lmasligi tasvirlanadi.

Xulosa qilib aytganda Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asari insonlarga odob-axloq, ilm, adolat, saxovat va haqiqat haqida saboq beruvchi muhim badiiy-tarbiyaviy asardir. Muallif bu asar orqali o'quvchilarga ilm va ma'rifatning buyuk kuch ekanini, ilmli inson jamiyatda hurmat qozonishini, johil esa xor bo'lishini tushuntiradi. Asarda insonning ezgu fazilatlarini – kamtarlik, rostgo'ylik, saxovat, insonparvarlik kabi xislatlar ulug'lanadi. Asarning asosiy maqsadi insonni axloqiy komillikka yetaklash, uni ilmga undash va yaxshi xulq-atvor bilan kamol topishga yo'naltirishdir. Yugnakiy insonlarning yolg'on va haqiqat, adolat va adolatsizlik, bilim va johillik orasidagi farqni tushunib yetishini istaydi. U to'g'ri so'zni asaldan shirin, yolg'onni esa sarimsoqdek achchiq deb tasvirlab, rostgo'ylikni eng yuksak fazilat sifatida ta'kidlaydi. Asarda ilmning naqadar muhimligi qayta-qayta yoritiladi. Muallif fikricha, ilmli inson – millat va jamiyatning asosiy tayanchi, ularning boyligi va kelajagidir. U ilmni inson go'zalligiga qiyoslaydi: suyakning ko'rki ilik bo'lgani kabi, insonning ko'rki uning ilmi va aqlidir. Bilimli inson o'lsa ham uning nomi barhayot qoladi, johil esa tirik bo'lsa ham jamiyatda qadrsiz bo'ladi. Yugnakiyning bu asari faqatgina badiiy yodgorlik emas, balki o'quvchilar uchun axloqiy qo'llanma hamdir. Asar shaxsiy kamolot, jamiyatdagi tartib-intizom va insoniy fazilatlar haqida chuqur fikr yuritadi. Uning g'oyalari bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan – ilmli, odobli va rostgo'y inson har doim jamiyatda qadrlangan va qadrlanadi. Umuman olganda, "Hibat ul-haqoyiq" – bu o'quvchini hayotiy haqiqatlarga yo'naltiruvchi, odob-axloq, ilm va

insoniy fazilatlarining ahamiyatini anglatib beruvchi nodir asar. U bugungi o‘quvchi uchun ham muhim saboqlar beradi va har bir inson hayotida amal qilishi kerak bo‘lgan qadriyatlarni yoritib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov O. Hibatul-haqoyiq. —T.: “Sharq” , 2013.
2. Mahmudov Q. Ahmad Yugnakiyning „Hibat ul-haqoyiq“ asari haqida. — T.: 1972.
3. G.Xo‘janova. „Hibatul-haqoyiq“ haqiqatlari. — T.: 2001.
4. wikipediya: <http://www.wikipedia.org>